

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ
ТАҲЛИЛИ**

UZBEKISTAN LAW REVIEW

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ	SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL	НАУЧНО АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
--------------------------------------	--	--

**2024
№4**

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

БОШ МУҲАРРИР:

Гулямов Саид Саидахарович — юридик
фанлари доктори, профессор.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович — ю.ф.д.,
профессор.

Ҳўжаев Шохжаҳон Акмалжон ўғли — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқюлов Омонбой — ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёкубович — ю.ф.н., профессор.

Махкамов Отабек Мухтарович — ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаевна — ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоевич — ю.ф.д., доц.

Бекоев Ихтиёр — ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Сохибжонович — ю.ф.д., проф.
в.б.

Хазратқулов Одилбек Турсунович — юридик
фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билялович — ю.ф.д.,
профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович — ю.ф.д.,
профессор.

Нарзиёв Отабек Саъдиевич — ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун қуйидагиларга мурожаат этиш
сўралади:

Гулямов Саид Саидахарович,
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,
Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон
нужаси Интернетдаги www.library-tsul.uz ёки
www.lawreview.uz сайтида жойлаштирилган.

Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Маҳкамасининг Олий Аттестация
комиссияси журналлари рўйхатида киритилган.

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хулосалар,
талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб,
Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик
университети сиёсати ёки фикрини акс эттирмайди.
2024 йилда нашр этилди.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик
университетига тегишли. Барча ҳуқуқлар ҳимояланган.
Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва
қўлайлаштириш Тошкент давлат юридик университети рухсати
билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент
давлат юридик университетига мурожаат этилади.
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ
кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**
Нашриёт муҳаррири: **Н. Ниязова**

Техник муҳаррир: **Д. Козимов**
Лицензия № 02-0074

Босишга рухсат этилди — 25.12.2024

Нашриёт ҳисоб табоғи — 5

«IMPRESS MEDIA» босмахонасида босилди
Адади — 100 нусха.

ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ
ЖУРНАЛ

4/2024

МУНДАРИЖА

МУНДАРИЖА	
Ш.Туйчиева Теоретические основания и критический анализ подхода к урегулированию инвестиционных споров в контексте статьи 63 Закона Республики Узбекистан «Об инвестициях и инвестиционной деятельности»	3
У.Шарахметова Укрепление в семье личных и имущественных прав обязанностей супругов на основе принципа равенства	7
Ж.Тўраев Ходимларнинг меҳнат ҳуқуқларига риоя қилиниши бўйича давлат назорати ва текширувининг назарий ва амалий аҳамияти	11
Д. Имомова Определение применимого права для внешнеэкономических сделок в условиях цифрового пространства	15
Х.Шарипова Правовое регулирование облачных технологий в контексте международного сотрудничества	17
I.Abdikhakimov Quantum computing and its impact on cybersecurity: redefining legal frameworks for a post-quantum era	20
I. Rahmatulloyev Prokuratura organlarining fuqarolik huquq va burchlarini amalga oshirishdagi ishtiroki	24
S. Tatar, N. Dilboboev Means of international investment dispute resolution	28
Э.Инамджанова Особенности преподавания коллизионного права в современном образовательном процессе	32
J.Askarov Sun'iy intellekt yordamida sog'liqni saqlashni rivojlantirish: huquqiy takomillashtirish	46
T.Pulatov Digital Financial Assets as an Object of Civil Rights	50
Д.Имамалиева Развитие механизмов альтернативного разрешения споров на международной и национальной арене	57
SH.Almosova Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash usullari va vositalari tahlili	62
A.Akramov A comparative analysis of international legal norms regarding the inheritance of digital property	69
E.Asadov Davlat moliyaviy nazoratida moliyaviy javobgarlik va uning yuridik tabiati	77
D.Abdullaeva The system of international control over the observance of human rights at work	88
М. Турдалиев Определение и сущность искусственного интеллекта (ии) в контексте международной торгов- ли	93
О.Хазратқулов Рақамли активлар билан боғлиқ муносабатларни фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиш масаласида хорижий мамлакатлар тажрибаси	102
Б.Акмалхонов Механизмы защиты права собственности в международном праве	109
Sh.Alamonova Revisiting Public Services under GATS: A Legal Analysis of Commitments and State Discretion	114
Б.Саидов Проблемы гражданско-правового обеспечения кибербезопасности охраняемых объектов: договорные аспекты	118
Sh.Sotvoldiyev Xalqaro tijorat sudlari - nizolarni hal qilishning usuli sifatida	124
А.Вахабов Халқаро хусусий ҳуқуқда — lex voluntatis тамойили	126

Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li,

Toshkent davlat yuridik
universiteti tayanch doktranti

**DAVLAT MOLYAVIY NAZORATIDA
MOLYAVIY JAVOBGARLIK VA UNING
YURIDIK TABIATI**

Annotatsiya. Muallif mazkur maqolada davlat moliyaviy nazorati organlari tizimi va moliyaviy javobgarlikka oid kategoriyalarni tahlil qilgan. Mazkur tadqiqotning maqsadi tadqiqot natijasida davlat moliyaviy nazorat organlari tizimi hamda moliyaviy javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Davlat moliyaviy nazorat organlari tizimi davlat tomonidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish uchun vakolatli bo'lgan davlat tashkilotlari jamlanmasi hisoblanadi. Davlat moliyaviy nazorat organlari tizimi o'z ichiga umumiy va maxsus vakolatli organlarni qamrab oladi, xususan umumiy vakolatli organlarga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kiradi, maxsus vakolatli organlarga O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kiradi. Davlat moliyaviy nazorati organlarining asosiy vazifasi moliyaviy intizomni ta'minlash hisoblanadi. Mazkur organlar o'z vazifalarini amalga oshirish uchun moliyaviy nazorat shakl va usullaridan foydalanishadi. Moliyaviy intizomning buzilganlik holati moliyaviy huquqbuzarlik sodir etilganligini anglatadi. Moliyaviy huquqbuzarlik moliyaviy qonunchilikda belgilangan normalarning buzilishi bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan sodir etiladi. Moliyaviy huquqbuzarlik boshqa huquqbuzarlikdan farq qilib, mazkur huquqbuzarliklar moliya, byudjet, soliq, valyuta va pul jamg'armalari tizimida sodir etiladi. Moliyaviy huquqbuzarlikning yuridik tarkibi mavjud bo'lib, unga huquqbuzarlik subyekti, huquqbuzarlik subyektiv tomoni, huquqbuzarlik obyekti hamda huquqbuzarlik obyektiv tomoni kiradi. Mazkur elementlarning barchasi mavjud bo'lganda moliyaviy javobgarlikka tortish uchun asos paydo bo'ladi. Moliyaviy javobgarlik yuridik javobgarlikning alohida turi bo'lib, moliya qonunchiligining o'zida ham huquqbuzarlik uchun sanksiyalar belgilanadi. Mazkur masalalarni milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish, tarixiy-huquqiy, tizimli, mantiqiy, statistik va boshqa usullar orqali o'rganish orqali davlat moliyaviy nazorat organlari tizimi va moliyaviy huquqbuzarlikning elementlariga doir takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur takliflar ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, milliy qonunchilik normalarini sharhlashda va takomillashtirishda qo'llaniladi. Davlat moliyaviy nazorat organlari tizimi moliyaviy nazoratni amalga oshirishga umumiy va maxsus vakolatli organlar jamlanmasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Davlat moliyaviy nazorati organlari tizimi,

moliyaviy huquqbuzarlik, moliyaviy huquqbuzarlik subyekti, moliyaviy huquqbuzarlik subyektiv tomoni, moliyaviy huquqbuzarlik obyekti, moliyaviy huquqbuzarlik obyektiv tomoni, moliyaviy javobgarlik, moliyaviy javobgarlik maqsadi.

Аннотация. В данной статье автор проанализировал систему органов государственного финансового контроля и категории финансовой ответственности. Целью данного исследования является выработка предложений и выводов, направленных на совершенствование системы органов государственного финансового контроля и финансовой ответственности. Система органов государственного финансового контроля представляет собой совокупность государственных организаций, уполномоченных государством осуществлять финансовый контроль. Система органов государственного финансового контроля включает в себя органы общей и специальной компетенции, в частности, к органам общей компетенции относятся Олий Мажлис Республики Узбекистан, Президент Республики Узбекистан, Кабинет Министров Республики Узбекистан, к органам специальной компетенции относятся Счетная палата Республики Узбекистан, Министерство финансов Республики Узбекистан, Инспекция государственного финансового контроля при Министерстве финансов Республики Узбекистан, государственный налоговый комитет Республики Узбекистан, Центральный банк Республики Узбекистан. Основной задачей органов государственного финансового контроля является обеспечение финансовой дисциплины. Данные органы для осуществления своих функций используют формы и методы финансового контроля. Состояние нарушения финансовой дисциплины означает, что было совершено финансовое правонарушение. Финансовое правонарушение является нарушением норм, установленных финансовым законодательством, и совершается физическими и юридическими лицами. Финансовое правонарушение в отличие от других правонарушений, данные правонарушения совершаются в системе финансов, бюджета, налогов, валютных и денежных фондов. Финансовое правонарушение имеет юридическую структуру, в которую входят субъект правонарушения, субъективная сторона правонарушения, объект правонарушения и объективная сторона правонарушения. При наличии всех этих элементов возникает основание для привлечения к финансовой ответственности. Финансовая ответственность - это особый вид юридической ответственности, и в самом финансовом законодательстве также устанавливаются санкции за правонарушения. Посредством сравнительного анализа законодательства национальных и зарубежных государств, историко-правовых, системных, логических, статистических и иных методов были разработаны предложения по

системе органов государственного финансового контроля и элементам финансового правонарушения. Данные предложения используются в научной деятельности, законодательстве, правоприменительной практике, толковании и совершенствовании норм национального законодательства. Система органов государственного финансового контроля представляет собой совокупность органов, имеющих общие и специальные полномочия на осуществление финансового контроля.

Ключевые слова. Система органов государственного финансового контроля, финансовое правонарушение, субъект финансового правонарушения, субъективная сторона финансового правонарушения, объект финансового правонарушения, объективная сторона финансового правонарушения, финансовая ответственность, цель финансовой ответственности.

Annotation. In this article, the author analyzed the system of state financial control bodies and categories of financial responsibility. The purpose of this study is to develop proposals and conclusions aimed at improving the system of state financial control and financial responsibility. The system of state financial control bodies is a set of state organizations authorized by the state to exercise financial control. The system of state financial control bodies includes bodies of general and special competence, in particular, the bodies of general competence include the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, the President of the Republic of Uzbekistan, the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, the bodies of special competence include the Accounting Chamber of the Republic of Uzbekistan, the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, The Inspectorate of State Financial Control under the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, the State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan, the Central Bank of the Republic of Uzbekistan. The main task of the state financial control bodies is to ensure financial discipline. These bodies use forms and methods of financial control to carry out their functions. A state of financial discipline violation means that a financial offense has been committed. A financial offense is a violation of the norms established by financial legislation and is committed by individuals and legal entities. Financial offense unlike other offenses, these offenses are committed in the system of finance, budget, taxes, currency and monetary funds. A financial offense has a legal structure that includes the subject of the offense, the subjective side of the offense, the object of the offense and the objective side of the offense. In the presence of all these elements, there is a basis for bringing to financial responsibility. Financial liability is a special type of legal liability, and the financial legislation itself also establishes penalties for offenses. Through a comparative analysis of the legislation of national and foreign states, historical and legal, systemic, logical, statistical and other methods,

proposals were developed on the system of state financial control bodies and elements of financial offense. These proposals are used in scientific activities, lawmaking, law enforcement practice, interpretation and improvement of national legislation. The system of state financial control bodies is a set of bodies with general and special powers to exercise financial control.

Keywords. The system of state financial control bodies, a financial offense, the subject of a financial offense, the subjective side of a financial offense, the object of a financial offense, the objective side of a financial offense, financial responsibility, the purpose of financial responsibility.

Kirish

Davlat organi – bu qonuniy asosda tashkil etiladigan, davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida muayyan vakolatlarga ega bo'lgan, davlat apparatining mustaqil bo'g'ini hisoblanadi.

Davlat organlarini tavsiflovchi belgilari:

hokimiyat vakolatiga ega;
davlat nomidan uning vazifa va funksiyalarini bajaradi;
muayyan huquq va majburiyatlar majmuiga ega;
muayyan huquqiy mustaqillikka ega;
o'z ichki tuzilishi va tuzilmasiga ega;
muayyan hududda faoliyat yuritadi;
o'z vakolati doirasida bajarilishi majburiy bo'lgan huquqiy aktlar chiqaradi;
qonunda belgilangan tartibda tashkil etiladi;
o'z shaxsiy tarkibi o'rtasida huquqiy aloqalarni o'rnatadi. [1, 73-b]

E.Xojiyevning fikricha O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezident, Hukumat hamda ijroiya hokimiyatning tegishli organlari amalga oshiradi. [2, 53-b] A.Raximovanning fikricha moliyaviy kontrolni olib boruvchi davlat organlariga qarab quyidagilarga bo'lishimiz mumkin: Vakillik organlari tomonidan olib boriladigan moliyaviy kontrol; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan olib boriladigan moliyaviy kontrol; Umumiy vakolatli ijro hokimiyati organlari tomonidan olib boriladigan moliyaviy kontrol; maxsus vakolatli ijro hokimiyati organlari tomonidan olib boriladigan moliyaviy kontrol va boshqalar.

Moliyaviy kontrol davlat kontrolining bir turi bo'lib, davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari tomonidan hamda maxsus vakolatli organlar tomonidan olib boriladi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitiga o'tish munosabati bilan hokimiyat organlarining kontrol vakolati tubdan o'zgardi. Moliyaviy kontrolni amalga oshiruvchi umumiy vakolatli davlat hokimiyati organi bu O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasidir. [3, 71-b]

O.Axmedovning fikricha davlat moliyaviy nazorati tizimini Oliy Majlis va Prezidentga hisobdor moliyaviy nazorat organi – Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat moliyaviy nazorati departamenti, hududiy boshqarmalar, vazirlik va idoralar, ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari va hududiy bo'linmalari tashkil qiladi. [4, 852-b]

B.Turabovning fikricha davlat moliyasining asosiy funksiyalaridan hisoblangan moliyaviy nazorat vazifasi bir qator tegishli vakolatli davlat organlari zimmasiga yuklatilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa, davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budjet mablag'larini taqsimlash va qayta taqsimlash, moliyalashtirish jarayonlarida davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda 3 ta tizim tashkilotlari faoliyat olib boradi: 1.O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi – davlat tashqi auditi va moliyaviy nazoratining oliy organi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunuvchi hamda oliy davlat vakillik organi bo'lgan Oliy majlisga hisobdordir. 2.O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari. 3.Vazirlik va idoralarni ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari. [5, 19-b]

Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar tizimi ikkita katta guruhga bo'linadi. Birinchi guruh – umumiy vakolatli organlar bo'lib, ular moliyaviy nazoratni umumiy tarzda olib borishadi, mazkur organlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi. Ikkinchi guruh – maxsus vakolatli organlar bo'lib, ular moliyaviy nazoratni to'g'ridan to'g'ri amalga oshiradi, mazkur organlar O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi hamda Markaziy bank hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasiga muvofiq Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish; O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash; bojxona, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish; O'zbekiston Respublikasi davlat qarzining eng yuqori miqdorini belgilash; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish; parlament tekshiruvini o'tkazishga vakolatli hisoblanadi.

Demak, parlament moliyaviy qonunchilikni shakllantiradi, moliyaviy nazorat organlarini shakllanishida ishtirok etadi, ularning hisobotlarini eshitadi hamda parlament nazoratini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining, O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi; mamlakat

ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi; vazirliklarni va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzadi hamda tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi; O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi; qonunni o'z e'tirozlari bilan takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli; O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Demak, prezident moliyaviy qonunchilikni ijro etilishi uchun qonunosti hujjatlarni qabul qiladi, davlat moliyaviy nazorati organlarini shakllantiradi, hisobotlarini eshitadi hamda prezident nazoratini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasiga muvofiq Vazirlar Mahkamasi samarali iqtisodiy, ijtimoiy, soliq va budjet siyosati amalga oshirilishi, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga doir dasturlarning ishlab chiqilishi hamda bajarilishi uchun javobgar bo'ladi; barqaror iqtisodiy o'sishni, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qulay investitsiyaviy muhitni yaratish, hududlarni kompleks va barqaror rivojlantirish bo'yicha choralar ko'rishi vakolatli hisoblanadi. [6, 12-b]

Demak, huqumat moliyaviy qonunchilikni ijro etilishi bo'yicha qonunosti hujjatlarni qabul qiladi, davlat moliyaviy nazorati organlarini shakllanishida ishtirok etadi hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda hukumat nazoratini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 171-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir. Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining daromadlari qismi bo'yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. [7, 23-b]

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi: O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasini va o'rta muddatli davr uchun fiskal strategiyani, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining loyihalarini ekspertizadan o'tkazishni; qabul qilinayotgan davlat dasturlari va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganligi auditini; budjet tizimi budjetlariga hamda belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalarga mablag'lar tushumining to'liqligini o'rganish va nazorat qilishni; budjet tizimi budjetlarining hamda belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning daromadlarini ko'paytirish zaxiralarini aniqlash va safarbar qilishni; budjet tizimi budjetlarining

hamda belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning amalga oshirilayotgan xarajatlari samaradorligini va qonuniyligini auditdan o'tkazishni, barcha darajalarda ularni qisqartirish bo'yicha imkoniyatlarni aniqlashni; budjet tizimi budjetlari mablag'lari va davlatdan qarz olish hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining maqsadga muvofiqligini va asosliqligini baholashni; soliq, bojxona va budjet to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqishni, budjetga oid rejalashtirishning zamonaviy usullarini tizimli qoidabuzarliklarning sabablarini, shuningdek xalqaro tajribani umumlashtirish va o'rganish orqali joriy etishni; O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari o'rtasidagi nisbat maqbulligini, mahalliy davlat hokimiyati organlarining daromadga oid vakolatlari va xarajatlarga doir majburiyatlari chegaralanishining to'g'riligini baholashni, ularning moliyaviy jihatdan o'zini o'zi ta'minlashi yuzasidan takliflar ishlab chiqishni; O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining budjet ssudalari va kredit liniyalaridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni; O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar huzuridagi missiyalari va vakolatxonalari tomonidan chet el valyutasidagi mablag'lardan to'g'ri va maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni; davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablarining to'g'ri qo'llanilishi ustidan nazoratni; O'zbekiston Respublikasi pul-kredit va valyuta siyosatining, O'zbekiston Respublikasi aktivlari va majburiyatlari holatining, oltin-valyuta zaxiralarini boshqarishning, shuningdek qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning tashqi auditini amalga oshiradi. [8, 24-b]

Demak, Hisob palatasi O'zbekistonda davlat budjeti hamda davlat jamg'armalarining ekspertizasi, audit, va pul-kredit va valyuta siyosatining nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risidagi qonuniga muvofiq Hisob palatasi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va vakolatlar doirasida dastlabki hamda yakuniy nazorat tarzida taftish, tekshirish (shu jumladan budjet to'g'risidagi qonunchilikning avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibida tekshirish) va o'rganish shaklida nazorat tadbirlarini amalga oshiradi. Taftish nazorat tadbiri bilan qamrab olingan davrda nazorat obyekti tomonidan amalga oshirilgan barcha moliya-xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi va asosliqligini, ularning buxgalteriya hisobotlarida hamda moliyaviy hisobotlarda haqqoniy tarzda va to'g'ri aks ettirilishini hujjatlar asosida aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tekshirish nazorat obyekti muayyan davrdagi ayrim harakatlarini (operatsiyalarini) yoki faoliyatining muayyan yo'nalishini nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi. Tekshirish kameral va sayyor turlarga bo'linadi. Kameral tekshirish, qoida tariqasida, Hisob palatasi joylashgan

yerda, Hisob palatasida mavjud bo'lgan yoki Hisob palatasining so'roviga ko'ra taqdim etilgan ma'lumotlarga va hujjatlarga asosan o'tkaziladi. Sayyor tekshirish nazorat obyekti joylashgan yerda o'tkaziladi. O'rganish nazorat obyekti muayyan sohasini hamda faoliyatini statistik, moliyaviy va boshqa ma'lumotlar asosida tahlil qilish hamda baholash maqsadida amalga oshiriladi. Hisob palatasi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ko'rsatmalar va taqdimnomalar qabul qiladi, shuningdek tahliliy ma'lumotlar hamda xulosalar tayyorlaydi. [9, 3-b]

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari o'z vakolatlari doirasida: quyi turuvchi moliya organlari tomonidan budjet to'g'risidagi qonunchilik ijrosining ta'minlanishi ustidan; ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanishi hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan; budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan smeta-shtat intizomiga rioya etilishining ta'minlanishi ustidan; aksiz solig'i to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi ustidan; aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarning aksiz markalari bilan to'liq tamg'alanishi va olingan aksiz markalari sonining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga muvofiqligi ustidan; budjet tashkilotlari tomonidan budjet hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning, shuningdek quyi turuvchi hududiy moliya organlari tomonidan budjet hisobotini tuzishning to'g'riligi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoniga muvofiq Moliya vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sifatida qayta tashkil etildi.

G'aznachilik bo'linmalari davlat moliyaviy nazoratini: budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari mablag'lari hisobiga tuzilgan shartnomalarini xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan summalar doirasida hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq tuzilganligi ustidan nazorat qilish asosida majburiy ro'yxatdan o'tkazish; xarajatlar smetalarida va ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarda nazarda tutilgan summalar doirasida budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar nomidan hamda ularning topshirig'i bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilarning hisobvaraqlariga to'lovlarni bevosita amalga oshirish orqali to'lov intizomiga rioya etilishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiradi. [10, 25-b] Demak, G'aznachilik bo'linmalari budjet tashkilotlarida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish hamda budjet tashkilotlarida hisob-kitob intizomiga rioya qilinishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari: budjet va smeta-shtat intizomiga rioya

qilinishi; budget tizimi budgetlarining xarajatlari ijrosi; budget tizimi budgetlarining mablag'lari hisobidan to'lovlarni amalga oshirishning navbatliligi, muddatlariga rioya etilishi va to'liqligi; rivojlanish davlat dasturlarini amalga oshirish uchun markazlashtirilgan manbalardan ajratiladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi; O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik muassasalari tomonidan chet el valyutasidagi mablag'lardan to'g'ri va maqsadli foydalanilishi; pensiyalar va nafaqalar to'g'ri tayinlanishi, hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi; tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining faoliyati; budget ssudalari va kredit liniyalaridan maqsadli foydalanilishi; O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan) maqsadli foydalanilishi; insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'laridan maqsadli foydalanilishi; davlat xaridlari bo'yicha tender (tanlov) savdolarining to'g'ri o'tkazilishi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi. [11, 26-b] Mazkur inspeksiya to'liq budget tashkilotlarining moliyaviy operatsiyalarini nazorat qilib, budget mablag'lari maqsadli va samarali foydalanishi ustidan doimiy nazoratni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarning samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida» 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibidagi Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari negizida Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tashkil etilgan. Shuningdek, Mazkur inspeksiya Bosh prokuratura departamenti o'tkazilishi 2024-yil 16-yanvardagi prezident raisligidagi videoselektorda ma'lum qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati to'g'risidagi qonunining 4-moddasiga muvofiq Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni ta'minlash; soliqlarning soliq to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq hamda o'z vaqtida tushishini ta'minlash; soliq to'lovchilarni va soliq solish obyektlari o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash; soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va ta'sirchan choralar ishlab chiqish; pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash; soliqlarning ixtiyoriy ravishda to'lanishini ta'minlashga qaratilgan; davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan davlat budjetini shakllantirish masalalari bo'yicha hamkorlik qilish; yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka

rioya etilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish. [12, 3-b] Demak, soliq organlari jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning davlat budjeti va maqsadli jamg'armalariga o'z vaqtida to'liq to'lanilishini ta'minlashdan iborat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonunining 12-moddasiga muvofiq Markaziy bankning quyidagi vazifalari mavjud: pul-kredit siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi; O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasini monitoring, tahlil va prognoz qiladi; O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga Davlat budjeti loyihasini tayyorlashga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha axborotni taqdim etadi; naqd pul muomalasini tashkil etadi; valyutani tartibga solishni va valyutani nazorat qilishni amalga oshiradi; valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab boradi; banklarni va kredit byurolarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi; banklarning, to'lov tashkilotlarining, to'lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalari va kredit byurolarining faoliyatini litsenziyalaydi, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni beradi; hukumatning fiskal agenti vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan bank operatsiyalarini va boshqa bitimlarni mustaqil ravishda; O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimlari barqaror ishlashini ta'minlash choralari ko'radi; banklar va nobank kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, moliyaviy xizmatlarning ochiqqligini hamda aholining va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish choralari ko'radi; O'zbekiston Respublikasining xalqaro xaziralarini, shu jumladan kelishuvga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Hukumatining xaziralarini boshqarishni, hisobga olishni va saqlashni amalga oshiradi. [13, 4-b] Demak, Markaziy bank pul, valyuta, kredit va bank siyosatini ishlab chiqadi hamda bank va nobank tashkilotlar tomonidan bank qonunchiligiga rioya qilinishini nazorat qiladi.

M.Qurbonov va O.Safarovlar har bir moliyaviy nazorat organlari faoliyatidagi kamchiliklar bo'yicha quyidagi fikrlarni keltirib o'tishgan, xususan, Hisob palatasida: 1. Davlat budjeti xarajatlarni nazorat qilish qamrovi past (2020-yilda 5-6 foiz); 2. Shtat soni kam, hududiy bo'linmalar yo'q, nazorat tadbirlarida asosan boshqa tashkilotlardan xodimlar jalb qilinadi, ayrim tekshirishlar tanlov usulida, tor doirada olib boriladi; 3. Avtomatlashtirilgan tizimnig joriy etilishi, Prezident topshiriqlari ijrosini nazorati va boshqa vazifalarni samarali amalga oshirish imkoni cheklanmoqda. Davlat moliyaviy nazorati departamentida: 1. Departamentni Moliya vazirligi tarkibida bo'lganligi nazoratni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradi. 2. Tahlila-tahlil, kameral nazorat va talon-tarajlikni oldini olish tizimi samarali yo'lga qo'yilmagan, tashqi manba ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan. 3.

Davlat xaridlarida tovar (xizmat)lar narxlarini to'g'riligiga xulosa berish, qurilish ishlarini qayta nazoratdan o'tkazish vakolati yo'q.

Ichki audit xizmatlarida: 1.Ichki auditning asosiy maqsadi xato va kamchiliklarni oldini olish, tizimli muammolarini bartaraf etish bo'lsada, amalda ular tizimsiz, samarasiz tekshirish bilan shug'ullanib qolmoqda. 2.Ichki audit xodimlari soni o'z sohasidagi obyektlar soniga nomutanosib, xodimlar malakasi past, faoliyat natijalari ustidan nazorat yo'q. 3.Aniqlanayotgan qonunbuzarliklarni tizimli ravishda bartaraf etish ta'minlanmagan. [14, 828-b]

Tadqiqotchi tomonidan N.Saburov, Sh.Saydullayev, A.Rahimova, E.Hojiyev, M.Qurbonov, O.Safarov, B.Turabov, O.Axmedov, E.Hojiyev, Boyko N.N., Vorobeva Ye.A., Muxyanova A.A. Yu. A.Kroxina, A.Z. Arslanbekova, N.V.Serdyukova, A.A.Muskatina, Yu.L.Shumskix, N.G.Sukiasyan, T.G.Zinurov, S.A.Polyakova va boshqa olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan.

Material va metodlar

Davlat moliyaviy nazoratida moliyaviy javobgarlikni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda davlat va huquqda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya, deduksiya va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalari

Huquqbuzarlik ijtimoiy ma'noda jamiyat, fuqarolik va jamoa birlashmalarining huquq va manfaatlariga xavf tug'dirishga qodir bo'lgan hujjatlar bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishini qiyinlashtiradi va ularning buzilishiga sabab bo'ladi. Huquqbuzarlik qasddan yoki ehtiyotsizlik ko'rinishida bo'ladigan, huquq qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida jamiyat, davlat va fuqarolar manfaatlariga yetkaziladigan moddiy va ma'naviy zarar yoki xavfli harakat va harakatsizlikdir.

Bunday qilmish qonun bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi yoki zarar yetkazish xavfini tug'dirishi mumkin. Huquqbuzarlikning asosiy belgilari:

- jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy javfli;
- huquqqa zid xarakterga egaligi;
- aybli qilmish;
- zararli oqibat keltirib chiqaradi;
- faqat kishilar tomonidan sodir qilinishi;
- kishilarning erki va ongiga bog'liq bo'lgan holda, ular tomonidan harakat yoki harakatsizlik shaklida amalga oshiriladi. [15, 262-b]

Bizning fikrimizcha huquqbuzarlik umumiy ma'noda davlat, jamiyat va shaxslarga qaratilgan harakat yoki harakatsizlik bo'lib, mazkur qilmish orqali davlat va jamiyatning manfaatlariga hamda shaxslarning huquq va erkinliklari buziladi. Huquqbuzarliklar qaysi sohada sodir etilishi hamda qaysi qonunchilik normalari buzilishiga qarab turlarga ajraladi. Xususan, moliyaviy

munosabatlarda moliyaviy huquqbuzarliklar sodir etiladi va mazkur huquqbuzarliklar boshqa ma'muriy va jinoiy huquqbuzarliklardan o'zining mazmuni va belgilari bilan farqalanadi.

Moliyaviy huquqbuzarlik moliyaviy-huquqiy javobgarlikning asosi bo'lib, moliyaviy-huquqiy javobgarlikning munosabatlarini yuzaga keltirishda yuridik fakt sifatida xizmat qiladi.

"Moliyaviy huquqbuzarlik" tushunchasi moliya qonunchiligida belgilanmagan. Lekin, huquqbuzarlikning umumiy tushunchasidan kelib chiqqan holda, moliyaviy huquqbuzarlikka quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin.

Moliyaviy huquqbuzarlik - bu qonun hujjatlarida moliyaviy-huquqiy javobgarlik qo'llash nazarda tutilgan, moliya huquqi me'yorlari talablariga qarshi qaratilgan g'ayrihuquqiy aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi.

Moliyaviy huquqbuzarlik boshqa huquqbuzarlik turlari singari asosiy xususiyatlarga ega, ya'ni:

birinchidan, huquqqa xiloflik-moliyaviy huquqbuzarlikning asosiy belgisi sifatida moliyaviy-huquqiy me'yorlarning talablariga rioya qilmaslikni anglatadi;

ikkinchidan, aybning mavjudligi - moliyaviy huquqbuzarlikni tashkil etuvchi qilmish (harakat yoki harakatsizlik) qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilganligini anglatadi;

uchinchidan, jamiyatga qarshi qaratilganligi, ya'ni moliyaviy huquqbuzarlikning sodir etilish bilan davlatga, jamiyatga, oxir oqibat fuqaroga zarar yetkazilishi mumkin;

to'rtinchidan, jazoga sazovorligi, ya'ni qonun hujjatlarida moliyaviy huquqbuzarlik uchun moliyaviy-huquqiy javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa, huquqbuzarlik sodir etilgan deb topilishi mumkin.

Moliyaviy qonunchilikni buzishning boshqa holatlari uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarliklar qo'llanilishi mumkin. [16, 96-b]

N.Sukiasyaning fikricha iqtisodiy va huquqiy lug'atlar, "moliyaviy huquqbuzarlik" tushunchasi qonun bilan jazolanadigan harakat sifatida belgilanadi (masalan, soliqlarni qasddan to'lamaslik, kontrabanda, daromadni (foydani) yashirish va hokazo. Moliyaviy qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar va fuqarolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortiladi. Moliyaviy atamalar lug'atida "moliyaviy huquqbuzarlik" tushunchasi moliyaviy qonunchilikka zid bo'lgan fakt yoki joriy moliyaviy holatga zid bo'lgan harakat sifatida tavsiflanadi. [17, 277-b]

S.Polyakovaning fikricha moliyaviy huquqbuzarlik - bu aybdor ravishda sodir etilgan noqonuniy (moliyaviy qonunchilikni buzgan holda) subyektning ijtimoiy zararli harakati (harakati yoki harakatsizligi) hisoblanadi va buning uchun qonunchilik mulkiy (pul) xususiyatga ega bo'lgan sanksiyalar shaklida davlat majburlash choralarini belgilaydi. [18, 5-b]

T.Zinurovning fikricha moliyaviy huquqbuzarlik bu moliyaviy qonunchilik bilan javobgarlik belgilanadigan

huquqbuzarlik bo'lib, sohaviy normativ-huquqiy hujjatlar, xususan budjet, soliq, bank va valyuta qonunchiligi bo'yicha sanksiya belgilanadigan huquqbuzarlik hisoblanadi. [19, 6-b]

Bizning fikrimizcha, moliyaviy huquqbuzarlik - bu moliyaviy qonunchilik bo'yicha moliyaviy-huquqiy javobgarlik qo'llash nazarda tutilgan, moliya qonunchilik normalariga zid g'ayrihuquqiy aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi.

Sh.Saydullayevning fikricha huquqbuzarlikning tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

- obyekti (huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar);

- obyektiv tomoni (huquqning buzilishi va uning ijtimoiy xavfliligi);

- subyekti (huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar);

- subyektiv tomoni (huquqbuzarlik oqibatidan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli qilmishga bo'lgan ongli-ruhiy munosabat). [20, 188-b]

Moliya qonunchiligini buzgan shaxsni moliyaviy-huquqiy javobgarlikka tortish uchun moliyaviy huquqbuzarlikning tarkibi bo'lishi lozim. Moliyaviy huquqbuzarlikning tarkibi – bu qilmishni (harakat yoki harakatsizlikni) moliyaviy huquqbuzarlik deb topish uchun qonunda belgilangan elementlarning bo'lishi lozim.

Huquqbuzarlik tarkibining elementlari quyidagilar: huquqbuzarlikning obyekt, huquqbuzarlikning subyekti, huquqbuzarlikning obyektiv tomoni, huquqbuzarlikning subyektiv tomoni. Yuqoridagilarga asosanib moliyaviy huquqbuzarlikning tarkibini tashkil etuvchi elementlarni ko'rib chiqamiz:

Moliyaviy huquqbuzarlikning obyekt – bu moliyaviy huquqbuzarlik subyekting huquqqa xilof qilmishi (harakat yoki harakatsizlik) qaratilgan hamda moliya qonunchiligi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir.

Moliyaviy huquqbuzarlikning obyektini: umumiy, turdosh va bevosita obyektlarga bo'lishimiz mumkin.

Umumiy obyekt – moliya huquqi me'yorlari bilan qo'riqlanadigan, davlat va ma'muriy-hududiy tuzilmalar tomonidan o'rnatilgan davlat va ma'muriy-hududiy tuzilmalarning pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish, uni taqsimlash va undan foydalanishning tartibidir. [21, 96-b]

Turdosh obyekt – ma'lum bir guruhga birlashtirilgan ijtimoiy munosabatlardir. Masalan, budjet munosabatlari, soliq munosabatlari va hokazolar. Turdosh obyektning o'zini davlat yoki ma'muriy-hududiy tuzilmalari moliyaviy faoliyatining u yoki bu sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni birlashtirgan kichik guruhlariga (masalan, soliq nazoratini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini olib borish qoidalari, soliqlar va yig'implarni hisoblash va to'lash, budjet ssudalaridan foydalanish va qaytarish, kassa operatsiyalarini yuritish va hokazolar) bo'lishimiz mumkin.

Moliyaviy huquqbuzarlikning bevosita obyekt – bu moliya huquqi me'yorlari bilan qo'riqlanadigan aniq bir ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi yoki huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning harakati yoki harakatsizligi aynan

nimaga qaratilganligidir. [22, 97-b]

N.Serdukovanning fikricha moliyaviy huquqbuzarlikning obyekt subyekting aybli, huquqqa zid va ijtimoiy xavfli qilmishi qaratilgan munosabatlar doirasi hisoblanadi. Moliyaviy huquqbuzarlikning obyekt hilma-xilma bo'lib, qilmishning yo'nalishiga bog'liq hisoblanadi. Ma'muriy huquqbuzarlikning umumiy obyekt davlat va ma'muriy-hududiy birliklarning fiskal manfaatlari hamda markazlashgan va markazlashmagan pul jamg'armalarini yig'ish, taqsimlash va foydalanishning qonunchilikda belgilangan tartibi hisoblanadi. [23, 18-b]

Bizning fikrimizcha, moliyaviy huquqbuzarlik obyekt moliya qonunchiligi bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, bevosita obyekt, turdosh obyekt va umumiy obyekt sifatida tasniflanadi.

Moliyaviy huquqbuzarlikning obyektiga qarab uni ma'muriy huquqbuzarlikdan ajratish mushkuldir. Chunki, moliyaviy huquqbuzarlik o'zining obyektiga ega bo'lsa ham, ko'pgina hollarda bu obyekt ma'muriy huquqbuzarlikning ham obyekt hisoblanadi.

Moliyaviy huquqbuzarlikning subyekti –moliyaviy huquqbuzarlikni sodir etgan jismoniy yoki yuridik shaxslar hisoblanadi.

Jumladan, soliq qonunchiligini buzganlik uchun moliyaviy-huquqiy javobgarlik tashkilotlarga va jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Umumiy asoslardan kelib chiqadigan bo'lsak, soliq qonunchiligini buzgan 16 yoshga to'lgan jismoniy shaxslarni moliyaviy-huquqiy javobgarlikka tortish mumkin. Budjet qonunchiligini buzgan shaxslar (subyekti) jumlasiga tashkilotlarni – davlat hokimiyati organlarini, yuridik shaxslarni, shu jumladan kredit organlarini kiritishimiz mumkin. Budjet huquqi bo'yicha javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlaridan yana bir shundaki, ma'muriy-hududiy tuzilmalar ham subyekti sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ko'pgina moliyaviy huquqbuzarliklarda maxsus subyekti (masalan, soliq to'lovchi, budjet mablag'larini oluvchi) nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Moliyaviy huquqbuzarlikning subyekti bo'lib mansabdor shaxslar hisoblanmaydi. Shu jihati bilan u ma'muriy huquqbuzarlikdan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun soliq to'lovchilarga nisbatan Soliq kodeksida nazarda tutilgan moliyaviy jazo choralari qo'llaniladi, jismoniy shaxslar hamda yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari esa, shuningdek ma'muriy, fuqarolik-huquqiy va jinoiy javobgarlikka ham tortiladilar. Soliq to'lovchini javobgarlikka tortish uni soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi. [24, 96-b]

N.Sukiasyanning fikricha ma'muriy huquqbuzarlik subyekti moliyaviy huquqbuzarlik sodir etgan va moliyaviy javobgarlik choralari qo'llaniladigan shaxs, yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Mazkur subyektlar qoida tariqasida moliyaviy majburiyat yuklatilgan shaxslardir. [25, 277-b]

Bizning fikrimizcha, moliyaviy huquqbuzarlik subyekti – moliyaviy huquqbuzarlik obyektiga nisbatan aybli,

huquqqa zid va ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs hisoblanadi.

Moliyaviy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni – bu moliya huquqi me'yorlari bilan taqiqlangan harakat yoki harakatsizlikdir.

Harakat yoki harakatsizlik oqibatida moliyaviy huquqbuzarlikni sodir etish – davlat va ma'muriy-hududiy tuzilmalarga moddiy zarar yetkazadi. Masalan, soliq summasini to'lamaganlik yoki to'liq to'lamaganlik. Ko'pgina moliyaviy huquqbuzarliklar harakatsizlikdan sodir etiladi, ya'ni moliya huquqi me'yorlarida ko'rsatib o'tilgan talablar bajarilmaydi yoki loyiq darajada bajarilmaydi.

Moliyaviy huquqbuzarlikning obyektiv tomonini aniqlashda qo'shimcha (fakultativ) belgilarning (ya'ni, huquqbuzarlikning vaqti, joyi, usuli va boshqalar) mavjud bo'lishi ham talab qilinish mumkin. Jumladan, soliq huquqbuzarligini to'g'ri kvalifikatsiya qilishda uni sodir etish usullarini (fakultativ belgilarini), masalan, "bo'yin tovlash", "taqdim etmaslik", "to'lamaganlik" va hokazolarni aniqlash lozim bo'ladi. [26, 96-b]

A.Arslanbekovanning fikricha moliyaviy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni tashqi ko'rinishni tavsiflovchi belgilar tizimi sifatida belgilanadi, moliyaviy qonun hujjatlarida taqiqlangan harakat yoki harakatsizlikdan iborat bo'lgan huquqbuzarlik hisoblanadi. Obyektiv tomonning belgilar tizimiga sodir etilgan harakatning vaqti, joyi, tabiati, sodir bo'lgan zararli oqibatlar, takrorlanish, huquqbuzarlik sodir etilgan (tugatilgan) payt, uning muntazamligi kiradi. [27, 23-b]

Bizning fikrimizcha, moliyaviy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni moliyaviy huquqbuzarlik subyektining tashqi tomondan harakat yoki harakatsizligi hamda uning natijasida kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish hisoblanadi.

Moliyaviy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni, ya'ni huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning o'z qilmishiga (harakat yoki harakatsizligiga) bo'lgan ruhiy munosabatidir.

Moliyaviy huquqbuzarlikning subyektiv tomonini ayb shakllari tashkil etadi. Bizga ma'lumki, ayb shakli ikki shaklda: qasddan yoki ehtiyotsizlikdan bo'lishi mumkin.

Moliyaviy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi g'ayrihuquqiy ekanligini bilgan bo'lsa, uning zararli oqibatlariga ko'zi yetgan, yuz berishini istagan bo'lsa yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday moliyaviy huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb hisoblanishi mumkin.

Moliyaviy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan bo'lsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylagan bo'lsa, yoxud bunday oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda oldindan ko'ra bilmagan bo'lsa, bunday moliyaviy huquqbuzarlik ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan deb hisoblanishi mumkin. [28, 96-b]

Yu.Shumskixning fikricha moliyaviy huquqbuzarlikning

subyektiv tomoni huquqqa zid qilmishning (harakat yoki harakatsizlik) ichki tomonini ifodalab, huquqbuzarning o'z harakati va uning oqibatiga bo'lgan ruhiy tomonlarini ifodalaydi. [29, 19-b]

Bizning fikrimizcha, moliyaviy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni moliyaviy huquqbuzarlik subyektining ichki ruhiy holatini ifodalab, o'z qilmishi orqali qanday maqsad va motivni ko'zlagani hamda qilmishining oqibati haqidagi xohish-irodasini ifodalaydi.

Moliyaviy huquqbuzarlikning turlarini quyidagicha tasniflash mumkin: a) obyektiga ko'ra:

- budjet qonunchiligini buzish
- banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzish

- valyuta qonunchiligini buzish

- sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzish

- qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish

- soliq qonunchiligini buzish. [30, 137-b]

Moliyaviy huquqbuzarlikning quyidagi turlari mavjud:

a) Budjet to'g'risidagi qonunchilikni buzish bo'yicha quyidagi huquqbuzarliklar mavjud:

- 1) Budjet intizomini buzish;

- 2) Smeta-shtat intizomini buzish;

- 3) Budjet hisobini va moliyaviy hisobotni yuritish tartibini buzish;

- 4) Budjet so'rovini, ro'yxatdan o'tkazish uchun xarajatlar smetalarini va shtat jadvalarini, shuningdek moliyaviy hisobotni hamda davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etish tartibini buzish;

- 5) Budjet jarayonining ochiqqligini ta'minlash tartibini buzish;

- 6) O'zbekiston Respublikasiga beg'araz yordam doirasida kelib tushgan tovarlardan foydalanish tartibini buzish. [31, 5-b]

b) Soliqqa to'g'risidagi qonunchilikni buzish bo'yicha quyidagi huquqbuzarliklar mavjud:

1. Soliq organida hisobga qo'yish tartibini buzish;

2. Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish;

3. Nazorat-kassa texnikasini va hisob-kitob terminalarini qo'llash tartibini buzish;

4. Daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish qoidalarini buzish;

5. Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko'rsatish);

6. Soliqni (yig'imni) to'lamaslik yoki to'liq to'lamaslik;

7. Hisobvara-qakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish;

8. Transfert narxni belgilashda soliqlarni to'lamaslik yoki to'liq to'lamaslik;

9. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda ulushi soliq bazasiga kiritilmaganligi natijasida soliqni to'lamaslik yoki to'liq to'lamaslik;

10. Fiskal belgilarni aks ettirish yoxud avtomatlashtirilgan hisobga olish o'lchov vositalari bilan jihozlash yoki soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta'minlash bo'yicha qonunchilikda belgilangan talablarni yoki tartibni, shuningdek tovarlarni (mahsulotlarni) identifikatsiya vositalari orqali majburiy

raqamli markirovkalash qoidalarini buzish;

11.Soliq to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun banklarning javobgarligi;

12.Soliq (yig'im), bo'nak to'lovi, penyalari va jarimalarni o'tkazish to'g'risidagi topshiriqnomalarni bajarish muddatlarini buzish;

13.Banklar tomonidan bank hisobvaraqlari va operatsiyalar bo'yicha ma'lumotnomalarni (ko'chirmalarni) soliq organiga taqdim etmaslik. [32, 6-b]

c) Bank to'g'risidagi qonunchilikni buzish bo'yicha quyidagi huquqbuzarliklar mavjud: Qo'pol qoidabuzarliklar jumlasiga quyidagilar kiradi: litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi; sodir etilishi uchun oldindan Markaziy bankning ruxsatini olish talab etiladigan harakatlarning ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olmay turib amalga oshirilganligi; bankning yoki banklar guruhining faoliyatidagi qo'pol qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risidagi Markaziy bank ko'rsatmalarining belgilangan muddatda bajarilmaganligi; foydani taqsimlashda ko'rsatilgan talablarning bajarilmaganligi; bank ustav kapitali miqdori bank ustav kapitalining eng kam miqdoriga nisbatan belgilangan talabga muvofiq emasligi; bank yoki banklar guruhi kapitali monandligi koeffitsiyentining olti oydan ko'proq muddat davomida Markaziy bank tomonidan belgilangan yo'l qo'yiladigan eng kam miqdordan sakson foizgacha va undan kamroq foizgacha pasayganligi; bank aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yetarlicha zaxiraning mavjud emasligi; litsenziyada nazarda tutilmagan moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganligi; qonun bilan taqiqlangan yoki cheklangan faoliyat amalga oshirilganligi; bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan ancha qulay shartlar asosida bitimlar tuzilganligi; buxgalteriya hisobining hisobotga oid ma'lumotlar buzilishiga olib keladigan va bankning yoki banklar guruhining haqiqiy moliyaviy ahvolini aks ettirish imkonini bermaydigan qoidabuzarliklar bilan yuritilganligi; auditorlik tashkilotiga bankning auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun zarur bo'lgan moliyaviy hisobotlar va boshqa moliyaviy axborotlar taqdim etilmaganligi; Markaziy bank tomonidan nazorat vazifalari bajarilishiga to'sqinlik qilinganligi; bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi; Markaziy bankka axborotni taqdim etmaganlik, o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki bankning yoki banklar guruhining to'lov layoqatini yoxud likvidligini baholashni o'tkazishga to'sqinlik qiluvchi buzilgan yoki to'liq bo'lmagan axborot taqdim etilganligi; oxirgi benefitsiar mulkdorlar to'g'risidagi axborotning oshkor etilmaganligi; boshqaruvning tashkiliy tuzilmasida, ichki nazoratda, shuningdek tavakkalchiliklarni boshqarish tizimida bankning to'lov layoqatiga tahdid soluvchi yoki zarar ko'rinishiga olib keluvchi nuqsonlarning mavjudligi; tizimli ahamiyatga ega banklar tomonidan Markaziy bankning bufer kapitaliga oid talablariga rioya etilmaganligi; bank tomonidan ayrim moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish yoki filiallar ochishga doir cheklovlar va (yoki) taqiqqa rioya etilmaganligi; bank

tomonidan bankning moliyaviy ahvolini tiklash rejasi taqdim etilmaganligi; bankning kuzatuv kengashi va boshqaruv a'zolari, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlarining talablariga muvofiq emasligi; bank siri to'g'risidagi qonunchilik, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolining tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilganligi;

Jiddiy qoidabuzarliklar. Jiddiy qoidabuzarliklar jumlasiga quyidagilar kiradi: prudensial normativlarga rioya etilmaganligi, bundan bank ustav kapitalining eng kam miqdoriga oid talablar mustasno; bank yoki banklar guruhi kapitali monandligi koeffitsiyentining olti oydan ko'p bo'lmagan muddat davomida Markaziy bank tomonidan belgilangan yo'l qo'yiladigan eng kam miqdordan sakson foizgacha va undan kamroq foizgacha pasayganligi; banklar tomonidan to'lovlarning o'z vaqtida o'tkazilmaganligi; moliyaviy ahvoli barqaror bo'lmagan qarz oluvchilarning kreditlari restrukturalizatsiya qilinganligi; Markaziy bankning aniqlangan qoidabuzarliklar to'g'risida bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini xabardor qilishga doir talabi bankning kuzatuv kengashi yoki boshqaruv a'zolari tomonidan bajarilmaganligi; bankning kuzatuv kengashi yoki boshqaruv a'zolari yoxud muhim ahamiyatga ega xodimlari tomonidan korporativ boshqaruv va mukofotlash siyosatlarini bajarilmaganligi; buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tuzish qoidalari buzilganligi; xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat (harakatlar) Markaziy bankni belgilangan tartibda xabardor qilmay amalga oshirilganligi yoki tugatilganligi; juz'iy qoidabuzarlik uchun Markaziy bank tomonidan jarima ko'llanilganidan keyin uch yil davomida takroran sodir etilgan xuddi shunday qoidabuzarlik.

Juz'iy qoidabuzarliklar. Juz'iy qoidabuzarliklar jumlasiga qo'pol yoki jiddiy qoidabuzarlik hisoblanmaydigan, banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga javob bermaydigan nomuvofiqliklar kiradi. [33, 6-b]

d) Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzish bo'yicha quyidagi huquqbuzarliklar mavjud:

1.To'lov qobiliyati normativlariga oid talablarning buzilishi

2.Sug'urtalovchilar aktivlarini joylashtirishga oid talablarning buzilishi

3.Qayta sug'urta qilish operatsiyalariga oid talablarning buzilishi

4.Sug'urta zaxiralarini shakllantirish hamda joylashtirishga oid talablarning buzilishi

5.Sug'urtaga oid hisobotlarni taqdim etish talablarining buzilishi

6.Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi

7.Sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquq va manfaatlarining buzilishi

8.Sug'urtaga oid boshqa qonunchilik talablarining

bajarilmasligi. [34, 5-b]

Bizning fikrimizcha, moliyaviy huquqbuzarlikning quyidagi turlari mavjud: budjet qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik; bank qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik; valyuta qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik; sug'urta qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik; qimmatli qog'ozlar qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik; soliq qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik.

Tadqiqot najalari tahlili

Yuridik javobgarlik – bu huquqbuzarga nisbatan huquq normalarida ko'zda tutilgan sanksiyalar asosida davlatning majburlov choralari qo'llashdir. Bu choralar: shaxsiy (ozodlikdan mahrum etish); mulkiy (jarima); tashkiliy (muayyan huquqdan mahrum etish; ishdan bo'shatish) xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Yuridik javobgarlik quyidagi belgilari bilan xarakterlanadi:

- yuridik javobgarlik davlat majburlov choralari bilan bog'liq;

- yuridik javobgarlik huquqbuzarlik bilan bog'liq;

- yuridik javobgarlik huquqbuzar uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (ozodlikdan, ota-onalikdan mahrum qilish yoki sodir etilgan qilmishi uchun jarima to'lash va hokazo);

- normalarning sanksiyasida o'rnatilgan bo'ladi. [35, 147-148-b]

Moliyaviy javobgarlik yuridik javobgarlikdan kelib chiqadi, uning barcha belgi va elementlarini jamlaydi. Moliyaviy javobgarlikning o'ziga xos tomoni moliyaviy huquqbuzarlik moliyaviy munosabatlarda sodir etilib, moliyaviy qonunchilik bilan alohida tartibga solinganligi bilan ifodalanadi.

Adik Lining fikricha moliyaviy javobgarlik, agar uning paydo bo'lishi uchun haqiqiy asoslar mavjud bo'lsa, ular moliyaviy javobgarlikni qo'llash nafaqat mumkin, balki zarur bo'lgan holatlar to'plamini o'z ichiga oladi. Moliyaviy javobgarlik asoslariga quyidagilar kiradi:

huquqiy asoslar - bu moliyaviy huquqbuzarlik sifatida baholanadigan xatti-harakatlarning belgilarini (obyektiv va subyektiv) va huquqbuzarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan moliyaviy sanksiyalar ko'rinishidagi bunday xatti-harakatlarning oqibatlarini belgilaydigan huquqiy normalar to'plami. Qilmishni huquqbuzarlik belgilari to'plami orqali belgilamasdan, qonun ustuvorligida javobgarlik bo'lishi mumkin emas, ariza berish tartibining tafsilotlari ham choraning normativ konsolidatsiyasini va uning oqibatlarini nazarda tutadi;

Haqiqiy asoslar - moliyaviy va huquqiy normalar moliyaviy javobgarlikning boshlanishi (yuridik faktlar) bilan bog'liq bo'lgan hayotiy holatlar to'plamini qamrab oladi. Moliyaviy javobgarlikning haqiqiy asosi fikrlar, niyatlar, e'tiqodlar muayyan xatti-harakatlarda tashqi namoyon bo'lmasdan bo'lishi mumkin emas: harakatlar yoki harakatsizlik. Moliyaviy huquqbuzarlik faktga aylanishi uchun uni aniqlash va qayd etish kerak;

Protsessual asoslar - vakolatli shaxsning qonun bilan belgilangan tartibda qabul qilingan va amalga oshirilgan huquqbuzarga nisbatan moliyaviy javobgarlikning aniq

cholarini qo'llash to'g'risidagi muayyan qarorining mavjudligini nazarda tutadi. [36, 133-134-b]

A.Rahimova va E.Hojiyevlarning fikricha yuridik javobgarlik tizimida, odatda, fuqarolik, inozomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarliklar ko'rsatib o'tiladi. Oxirgi vaqtlarda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida moliya qonunchiligining, ayniqsa soliq qonunchiligining rivojlanishi bilan yangi javobgarlik turi – moliyaviy-huquqiy javobgarlik yuzaga kelmoqda. Qonunchilikda ilk bor “moliyaviy sanksiya” tushunchasi O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida ko'rsatib o'tildi.

Moliyaviy-huquqiy javobgarlik yuridik javobgarlikning turi sifatida, uning barcha xususiyatlariga egadir. Jumladan, moliyaviy-huquqiy javobgarlik:

- birinchidan, moliyaviy huquqbuzarlik sodir etilganida yuzaga keladi;

- ikkinchidan, davlat tomonidan o'rnatiladi va vakolatli davlat organlari (mansabdor shaxslari) tomonidan qo'llaniladi;

- uchinchidan, protsessual shaklda amalga oshiriladi;

- to'rtinchidan, huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga ma'lum bir ta'sir chorasini qo'llash bilan bog'liq bo'ladi. [37, 94-96-b]

A.Arslanbekovanning fikricha moliyaviy va huquqiy javobgarlik belgilari: u moliyaviy qonunchilik normalari bilan belgilanadi; bu qonuniy majburiyat; u ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi; davlat majburlashi bilan kafolatlanadi. [38, 71-73-b]

N.Boykoning fikricha moliyaviy javobgarlikning asosiy belgilari ta'kidlangan bo'lib, ular uni javobgarlikning mustaqil turi sifatida tasdiqlaydi:

- 1.Mustaqil tarmoq bo'lgan moliyaviy huquq normalarida belgilangan moliyaviy munosabatlarni himoya qilish vositasidir;

- 2.Moliyaviy-huquqiy javobgarlikka tortishning asosiy sababi harakat yoki harakatsizlik ko'rinishidagi noqonuniy, aybli qilmishdir;

- 3.Moliyaviy-huquqiy javobgarlik huquqbuzarga maxsus moliyaviy- huquqiy sanksiyalarni qo'llashdan iborat;

4. Moliyaviy javobgarlik mulkiy xususiyatga ega;

5. Moliyaviy javobgarlik choralari o'z vazifalarini noto'g'ri bajargan yoki bajara olmagan jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo'llaniladi;

6. Moliyaviy va huquqiy javobgarlik choralari vakolatli davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qo'llaniladi;

7. Moliyaviy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan moliyaviy va huquqiy sanksiyalarni qo'llash tartibi moliyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadi. [39, 3-b]

Bizning fikrimizcha, moliyaviy javobgarlikning asosiy belgisi alohida huquq sohasi sifatida moliyaviy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga alohida javobgarlik sohasi sifatida moliyaviy qonunchilik normalarini qo'llashda ifodalanadi.

Demak, moliyaviy-huquqiy javobgarlik moliyaviy huquqbuzarlik uchun qo'llaniladi. Moliyaviy-huquqiy

javobgarlik moliyaviy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga moliyaviy-huquqiy me'yorlarning sanksiyalarini qo'llashni nazarda tutadi.

A.Rahimova va E.Hojiyevlarning fikricha amaldagi qonunchilikda "moliyaviy-huquqiy javobgarlik" tushunchasi ko'rsatib o'tilmagan bo'lsa ham, "yuridik javobgarlik"ning umumiy tushunchasidan kelib chiqqan holda unga tushuncha berishimiz mumkin. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, huquq nazariyasida yuridik javobgarlik tushunchasi bo'yicha fikrlarning yagonaligi mavjud emas. Ko'pchilik hollarda, yuridik javobgarlikka – huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga davlatning majburlov chorasini qo'llash usuli sifatida qarashadi. Vakolatli organlar (mansabdr shaxslar) tomonidan huquqbuzarliklarga qo'llaniladigan davlatning majburlov choralari turli-tumandir. Ularning ba'zi birlari huquqbuzarlik sodir etilganligi fakti aniqlangunga qadar qo'llanilishi mumkin. Masalan, ogohlantiruv choralari, cheklov (ehtiyot) choralari va hokozalar. Davlat majburlovining boshqa choralari esa, huquqbuzarlik fakti aniqlangandan so'ng qo'llaniladi va huquqbuzar tomonidan qo'shimcha majburiyatlarni bajarishiga olib keladi. Moliyaviy-huquqiy javobgarlik – bu qonunchilikda belgilangan tartibda moliya huquqi me'yorlarini buzgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan davlatning ma'lum bir majburlov choralari bo'lib, moliyaviy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga mulkiy xarakterdagi qo'shimcha majburiyatlarni qo'llash bilan bog'liqdir. [40, 94-96-b]

A.Muskatinaning fikricha moliyaviy javobgarlik - bu qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishda moliyaviy qonunchilik talablariga rioya qilish bo'yicha qonuniy majburiyatni, moliyaviy huquqbuzarlik holatida esa mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy xarakterdagi jazolash va cheklovlardan o'tish majburiyatini anglatadigan murakkab tushuncha. Moliyaviy javobgarlik normativlik, rasmiy aniqlik, uni davlat tomonidan majburlash, ishontirish yoki rag'batlantirish choralari bilan amalga oshirishning kafolati va xavfsizligi kabi belgilar bilan tavsiflanadi. [41, 10-b]

N.Serdyukovaning fikricha moliyaviy-huquqiy javobgarlik deganda huquqbuzarning moliyaviy huquq normalari bilan belgilangan, davlat va mahalliy hokimiyatning moliyaviy faoliyati sohasida u tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun jazo moliyaviy sanksiyalari (jarimalar, penya) ko'rinishidagi davlat majburlash choralari ko'rish majburiyati tushuniladi. [42, 14-b]

A.Arslanbekovaning fikricha moliyaviy-huquqiy javobgarlik - bu jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy talablarga ixtiyoriy ravishda rioya qilishlari, davlat oldidagi moliyaviy majburiyatlarini ongli ravishda bajarishlari va agar ular bajarilmasa, ular moliyaviy huquqbuzarlik uchun aybdor huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy qonun hujjatlarida belgilangan shaxsiy, ijtimoiy yoki tashkiliy xarakterdagi mahrum qilishdan iborat bo'lgan davlat majburlash choralari ko'rish. [43, 104-b]

Bizning fikrimizcha, moliyaviy-huquqiy javobgarlik – moliyaviy qonunchilikda belgilangan normalarini buzgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan davlatning majburlov

chorasi bo'lib, moliyaviy sanksiyalarni qo'llashdan iboratdir.

Y.Kroxinaning fikricha moliyaviy javobgarlik - bu moliyaviy huquqbuzarlik sodir etganlikda aybdor bo'lgan shaxsning mulkiy xarakterdagi qo'shimcha huquqiy majburiyatlarni yuklashdan iborat bo'lgan va belgilangan protsessual tartibda vakolatli organlar tomonidan qo'llaniladigan moliyaviy qonun hujjatlarining sanksiyalarida nazarda tutilgan davlat tomonidan majburlash choralari ko'rish majburiyati.

Moliyaviy javobgarlik ikkita maqsadga ega: himoya maqsadi - bu orqali jamiyatni davlatning mulkiy manfaatlarini buzish bilan bog'liq nomaqbul vaziyatlardan himoya qiladi; rag'batlantiruvchi maqsad - bu orqali moliyaviy huquq subyektlarining qonuniy xatti-harakatlarini rag'batlantiradi. [44, 181-18-b]

N.Boykoning fikricha moliyaviy javobgarlik uchta maqsadga ega: a) himoya maqsadi – uni amalga oshirishda jamiyatni mulkni buzish bilan bog'liq nomaqbul vaziyatlardan davlat manfaatlarini himoya qiladi; b) rag'batlantirish-amalga oshirishda moliyaviy huquq subyektlarining qonuniy harakatlarini rag'batlantiradi; v) tarbiyaviy – uni amalga oshirishda uni tarbiyalash va takroriy huquqbuzarliklarning oldini olish vositasi sifatida ishlaydi. [45, 5-b]

A.Rahimova va E.Hojiyevning fikricha moliyaviy-huquqiy javobgarlikni qo'llashning asosiy maqsadi – moliya huquqi me'yorlarida ko'rsatilgan talablarning bajarilishini ta'minlash bo'lib hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun moliyaviy-huquqiy javobgarlik quyidagi vazifalarni bajaradi:

birinchidan, buzilgan huquqni qayta tiklash;
ikkinchidan, huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan davlatning majburlov chorasini qo'llash;
uchinchidan, huquqbuzarga nisbatan tarbiyaviy ishlarni olib borish va hokozalar.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy javobgarlikning maqsadi – moliyaviy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan davlat majburlov choralari qo'llash orqali davlat va jamiyatning moliyaviy resurslarining xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi.

A.Rahimova va E.Hojiyevning fikricha moliyaviy-huquqiy javobgarlik yuridik javobgarlikning mustaqil turi sifatida shakllanish arafasidadir. Bu moliya qonunchiligining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi vaqtda moliyaviy-huquqiy javobgarlik moliyaviy-huquqiy tartibga solishning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Jumladan, moliya qonunchiligining asosiy aktlaridan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun moliyaviy jazo choralari qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan.

Ko'pgina huquqshunos olimlar o'rtasida moliyaviy-huquqiy javobgarlikning mustaqil javobgarlik sifatidagi tushunchasi bo'yicha turli xil fikrlar mavjud. Masalan, ba'zi bir olimlarning fikricha, soliq qonunchiligini buzganlik uchun faqatgina ma'muriy va jinoiy javobgarlik qo'llaniladi.

Moliyaviy-huquqiy javobgarlik ma'muriy javobgarlikka

juda yaqin turadi. Ba'zi hollarda ularni bir-biridan ajratish juda mushkuldir. Moliyaviy-huquqiy javobgarlikning boshqa yuridik javobgarlikning turlaridan, ayniqsa ma'muriy javobgarlikdan farqini – moliyaviy huquqbuzarliklarning va moliyaviy-huquqiy sanksiyalarning o'ziga xos xususiyatlarida ko'rishimiz mumkin.

Moliyaviy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan davlat tomonidan o'rnatilgan moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi. Moliyaviy sanksiyalar – bu huquqbuzarlarga nisbatan penya va jarima ko'rinishidagi qo'shimcha majburiyatlarni yuklovchi moliyaviy-huquqiy me'yorlarda nazarda tutilgan davlatning majburlov choralaridir.

Moliyaviy sanksiyalar – moliyaviy-huquqiy javobgarlikning choralari bo'lib hisoblanadi. [46, 94-96-b]

Moliyaviy-huquqiy aktlarda nafaqat moliyaviy sanksiyalar, balki turli xildagi huquqbuzarlikni oldini oluvchi va cheklovchi (ehtiyot) choralari ham ko'rsatib o'tiladi.

Moliyaviy-huquqiy sanksiyalar javobgarlik chorasini ikki guruhga: jazo va qayta tiklovchi sanksiyalarga bo'linishi mumkin. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun aksariyat hollarda jarima moliyaviy jazo chorasini sifatida qo'llaniladi. Budjet qonunchiligining talablariga rioya qilishni ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan davlatning majburlov choralari esa, huquqbuzarlikni cheklash yoki huquqni qayta tiklash xususiyatiga ega.

Moliyaviy huquqbuzarlik uchun qo'llaniladigan jazo (jarima) – tariqasidagi moliyaviy-huquqiy sanksiyalar – huquqbuzarni jazoga tortish, shuningdek yangi huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadlarida o'rnatiladi. Bunday sanksiyalar jumlasiga faqatgina jarima jazosini kiritishimiz mumkin. Jarima moliyaviy-huquqiy javobgarlikning chorasini sifatida ma'muriy jarimadan va fuqarolik-huquqiy jarimadan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Moliyaviy jarima ma'muriy jarimadan qo'llash tartibiga qarab farqlanadi:

birinchidan, moliyaviy jarima boshqa jazo chorasini bilan almashtirilishi mumkin emas, shuningdek vakolatli davlat organi (mansabdor shaxsi) o'z xohishiga ko'ra jarima jazosidan ozod qilishi mumkin emas;

ikkinchidan, jarimani undirish imkoniyati mavjud;

uchinchidan, jarimani qo'llash to'g'risidagi qaror ustidan ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish tartibida shikoyat berilishi mumkin emas;

to'rtinchidan, moliyaviy jarimalar aksariyat hollarda, to'lanmagan soliq summalarini va penyalarni undirish bilan bir vaqtda qo'llaniladi.

Moliyaviy-huquqiy javobgarlik mulkiy javobgarlikning bir ko'rinishi bo'lganligi sababli, uni fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan farqlay olishimiz lozim. Moliyaviy huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan moliyaviy jarimalar soliq to'lovchilar, budjet krediti oluvchilar tomonidan, soliqlar to'langandan so'ng qoladigan daromad hisobidan undiriladi; fuqarolik-huquqiy jarimalar esa – korxonalarning amalga oshirilmagan xarajatlari jumlasiga kiradi.

Moliyaviy-huquqiy sanksiyalarni davlat va ma'muriy-hududiy tuzilmalarning moliyaviy faoliyati sohasida

qo'llaniladigan davlatning boshqa majburlov choralari moliyaviy huquqbuzarlik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashga va huquqbuzarni jazoga tortishga qaratilgan moliyaviy-huquqiy javobgarlik choralari bilan farq qilgan holda, moliyaviy-huquqiy munosabatlar subyektlarining qonunga zid harakatlarini cheklash va huquqbuzarni moliyaviy yoki boshqa yuridik javobgarlikka tortishni ta'minlashga qaratiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, davlat va ma'muriy-hududiy tuzilmalarning moliyaviy faoliyati sohasidagi davlatning boshqa majburlov choralari ogohlantiruv va cheklov (ehtiyot) choralari bo'lishimiz mumkin.

Davlat majburlovining ogohlantiruv choralari-moliyaviy-huquqiy munosabatlar subyektlarining qonunga zid harakatlarini ogohlantirish vazifasini bajaradi. Ko'p hollarda, bu choralar davlat soliq xizmati organlari, davlat bojxona xizmati organlari tomonidan qo'llaniladi. Ogohlantiruv choralari: soliq to'lovchining binolarini ko'zdan kechirish; soliq tekshiruvlarini o'tkazish uchun ma'lum bir hujjatlarni talab qilish; hujjatlar va narsalarni olib qo'yish va boshqalar kiradi.

Davlat va ma'muriy-hududiy tuzilmalarning moliyaviy faoliyati sohasidagi davlat majburlovining cheklov (ehtiyot) choralari – qonunga zid harakatlarni cheklash va huquqbuzarni moliyaviy yoki boshqa yuridik javobgarlikka tortish uchun shart-sharoit yaratib berish vazifasini bajaradi. Davlat majburlovining cheklov (ehtiyot) choralari, masalan, soliq qonunchiligiga binoan soliq to'lovchi-tashkilot hisobidan operatsiyalarni amalga oshirishni to'xtatib qo'yishni kiritishimiz mumkin.

Qayta tiklovchi moliyaviy-huquqiy sanksiyalar – moliyaviy huquqbuzarlik oqibatida davlatga yoki ma'muriy-hududiy tuzilmalarga yetkazilgan zararni bartaraf etishga qaratilgan. Qayta tiklovchi sanksiyalarga – penyalarga kiradi. Moliya sohasida bu sanksiya qo'llanilsa ham moliya qonunchiligida uning tushunchasi ko'rsatib o'tilmagan.

Moliyaviy-huquqiy sanksiya sifatida penyaning asosiy vazifasi – tegishli subyektlar tomonidan budjetga o'z vaqtida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaganlik, budjet mablag'larini o'z vaqtida qaytarib bermaslik oqibatida davlat va ma'muriy-hududiy tuzilmalarga yetkazilgan zararni qoplash bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib, penya – bu huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga qo'shimcha majburiyat yuklovchi moliyaviy-huquqiy sanksiya hisoblanadi.

Moliyaviy-huquqiy sanksiyalarda ko'rsatib o'tilgan penya fuqarolik-huquqiy sanksiyalarda ko'rsatib o'tilgan penyadan farq qiladi. Moliyaviy-huquqiy sanksiyalardagi penyalarning kelishuvi bilan o'rnatilishi mumkin emas, penyalarning summalarini davlat va ma'muriy-hududiy tuzilmalarning daromadlariga o'tkaziladi, tashkilotlardan undiriladigan penyalarga vakolatli davlat organlari tomonidan undiriladi. Fuqarolik-huquqiy sanksiyalardagi penyalarning kelishuvi asosida belgilanishi mumkin, bu penyalarni undirish faqatgina sud orqali amalga oshiriladi.

Demak, moliyaviy-huquqiy sanksiyalar jazo va qayta tiklovchi moliyaviy-huquqiy javobgarlik choralari

bo'linadi. [47, 100-102-b]

Adik Lining fikricha moliyaviy sanksiyalarni uchta asosiy turga bo'lish mumkin:

a) qarzlarni yig'ish, ular sanksiyalar-kompensatsiyalar deb ham ataladi-moliyaviy huquqbuzarliklar natijasida to'lanmagan budjetga to'lanadigan mablag'larni so'zsiz yig'ish;

b) penya va jarimalar ko'rinishidagi pul jarimalari (sanksiyalar-jazolar) – javobgarlik choralari, o'z navbatida, moliyaviy majburiyatlarning bajarilmagan qismi bo'yicha foizlar shaklida yoki davlatga yetkazilgan zarardan ortiqcha undiriladigan belgilangan pul summasi shaklida;

v) tashkiliy choralar (odini oluvchi va profilaktik sanksiyalar) - moliyaviy huquqiy munosabatlar subyektlarining faoliyatini cheklashga qaratilgan chora-tadbirlar yoki ularga boshqa moliyaviy bo'lmagan ta'sir (ogohlantirish berish, litsenziyani to'xtatib turish yoki bekor qilish, banklarga qarshi nazorat choralari, oshkor qilish va boshqalar.) [48, 139-b]

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat moliyaviy nazorati organi va tizimi tushunchasi bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: davlat moliyaviy nazorati organi – qonunchilikka muvofiq budjet tashkilotlari hamda moliya-budjet sohasida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan davlat tashkiloti hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati organlari tizimi – qonunchilikka muvofiq budjet tashkilotlari hamda moliya-budjet sohasida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan vertikal va gorizontal yo'nalishdagi davlat tashkilotlari jamlanmasi bo'lib, vakolatlari doirasi va hajmi bo'yicha umumiy va maxsus vakolatli hamda hududiy vakolat doirasi bo'yicha markaziy va hududiy tuzilmalardan iborat hisoblanadi.

Moliyaviy huquqbuzarlik – bu moliyaviy qonunchilik bo'yicha moliyaviy-huquqiy javobgarlik qo'llash nazarda tutilgan, moliya qonunchilik normalariga zid g'ayrihuquqiy aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi.

Moliyaviy huquqbuzarlikning quyidagi xususiyatlari mavjud:

birinchidan, moliyaviy huquqbuzarlik huquqbuzarlikning alohida turi hisoblanadi va ma'muriy, jinoiy va boshqa huquqbuzarliklardan o'z predmeti bo'yicha farq qiladi;

ikkinchidan, moliyaviy huquqbuzarlik moliyaviy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi moliya qonunchilik normalarini buzish orqali sodir etiladi;

uchinchidan, moliyaviy huquqbuzarlik budjet, bank, soliq, sug'urta, valyuta va to'lov tizimlariga oid sohalarda sodir etiladi;

to'rtinchidan, moliyaviy huquqbuzarlik huquqbuzarlikning barcha tarkibiy elementlari ya'ni moliyaviy huquqbuzarlikning subyekti, sub'ektiv tomoni, obyekt va obyektiv tomoni jam bo'lganda, huquqbuzarlik sifatida tavsiflanadi;

beshinchidan, moliyaviy huquqbuzarlik ijtimoiy xavfli qilmish bo'lib, mazkur harakat orqali davlat va jamiyatning moliyaviy manfaatlariga zarar yetkaziladi;

oltinchidan, moliyaviy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga (jismoniy va yuridik shaxs) moliyaviy sanksiya va jazo choralari qo'llaniladi.

Moliyaviy huquqbuzarlikning budjet qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik; bank qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik; valyuta qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik; sug'urta qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik; qimmatli qog'ozlar qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik; soliq qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarlik kabi turlari mavjud.

Moliyaviy-huquqiy javobgarlik – yuridik javobgarlikning bir turi sifatida moliyaviy qonunchilikda belgilangan normalarni buzgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan davlatning majburlov chorasi bo'lib, moliyaviy sanksiyalarni qo'llashdan iboratdir.

Moliyaviy javobgarlikning asosiy belgilari:

1)moliyaviy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi moliya qonunchilik normalarini buzishdan kelib chiqadi;

2)moliyaviy huquqbuzarlikning barcha elementlarini ifodalovchi aybli, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi;

3) moliyaviy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi;

4) moliyaviy javobgarlik choralari vakolatli davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qo'llaniladi.

Moliyaviy javobgarlikning maqsadi – moliyaviy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan davlat majburlov choralari qo'llash orqali davlat va jamiyatning moliyaviy resurslarining xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi.

Moliyaviy sanksiyalar – moliyaviy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan moliyaviy qonunchilikda qo'llanilishi nazarda tutilgan ta'sir chorasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi.Darslik.- Toshkent: TDYUU, 2018.-B.73 (220)

2.Hojiyev E. Moliya huquqi. Ma'ruzalar kursi. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.-B.53 (319 b)

3.Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi. Darslik. Toshkent, TDYUI, 2002. -B.71-73 (407)

4.Axmedov O. Budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish. Maqola. Jurnal. Scientific progress. Volume 3, Issue 1. 2022. –B.852

5.Turabov B. O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent, 2023.-B.19 (66)

6.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y.,03/23/837/0241-son

7.O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-l-son; 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son

8.O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi.

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son; 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son
- 9.O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risidagi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019 y., 03/19/546/3359-son. 19.02.2024 y., 03/24/909/0133-son
- 10.O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi.O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son; 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son
- 11.O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi.O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son; 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son
- 12.O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 232-modda; 12.03.2022 y., 03/22/758/0207-son
- 13.O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019 y., 03/19/582/4014-son, 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son
- 14.Qurbonov M., Safarov O. Yashirin iqtisodiyotni oldini olishda budget hisobi va intizomining ahamiyati. Maqola. "Mirzo Ulug'bek- buyuk mutafakkir olim va davlat arbobi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman.-B.828
- 15.Davlat va huquq nazariyasi. Darslik/ R.Yusuvaliyeva, M.Axmedshayeva, M.Najimov va boshqalar. Mas'ul muharrir. R.Yusuvaliyeva.-T.:JIDU, 2019, -B.262 (308)
- 16.Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi. Darslik. Toshkent, TDYUI, 2002. -B.96 (407)
- 17.Sukiasyan N.G. Ponyatiye, osobennosti i sostav finansovo-pravovogo narusheniya.Baltiyskiy gumanitarniy jurnal.Statya.2016. T 5, №3(16)-S.277
- 18.Polyakova S.A. K voprosu o finansovom pravonarushenii // Aktualnie problemi gumanitarnix i yestestvennix nauk. 2013. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-finansovom-pravonarushenii> (data obrasheniya: 23.08.2024).
- 19.Zinurov T.G. K voprosu o finansovom pravonarushenii i finansovo-pravovoy otvetstvennosti // Pravovoye gosudarstvo: teoriya i praktika. 2014. №4 (38). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-finansovom-pravonarushenii-i-finansovo-pravovoy-otvetstvennosti> (data obrasheniya: 23.08.2024).
- 20.Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.-Toshkent: TDYUU, 2018.-B.188 (220 b)
- 21.Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi. Darslik. Toshkent, TDYUI, 2002. -B.96 - 100(407)
- 22.Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi. Darslik. Toshkent, TDYUI, 2002. -B.97 - 100(407)
- 23.Serdyukova N.V. Finansovo-pravovaya otvetstvennost po Rossiyskomu zakonodatelstvu: stanovleniye i razvitiye. Avtoreferat diss..kandidata yuridicheskix nauk. Tyumen, 2003. -S.18 (26)
- 24.Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi. Darslik. Toshkent, TDYUI, 2002. -B.96 - 100(407)
- 25.Sukiasyan N.G. Ponyatiye, osobennosti i sostav finansovo-pravovogo narusheniya.Baltiyskiy gumanitarniy jurnal.Statya.2016. T 5, №3(16)-S.277
- 26.Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi. Darslik. Toshkent, TDYUI, 2002. -B.96 - 100(407)
- 27.Arslanbekova A.Z. Finansovo-pravovie sankcii v sisteme mer yuridicheskoy otvetstvennosti. Avtoreferat diss..doktora yuridicheskix nauk. Saratov, 2009. -S.23 (54)
- 28.Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi. Darslik. Toshkent, TDYUI, 2002. -B.96 - 100(407)
- 29.Shumskix Yu.L. Teoretiko-pravovie aspekti yuridicheskoy otvetstvennosti za pravonarusheniya v finansovo-pravovoy sfere. Statya. Yuridicheskix vestnik Samarskogo universiteta. 2016.T 2. № 1. -S.19
- 30.Finansovoye pravo Respubliki Uzbekistan. Kollektiv avtorov. Uchebnik. Tashkent. «Niso Poligraf», 2022, - B.137 (552)
- 31.O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son; 2014 y. 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son
- 32.O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son; 14.08.2024 y., 03/24/942/0612-son
- 33.O'zbekiston Respublikasining Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019 y., 03/19/580/3994-son; 22.02.2024 y., 03/24/911/0142-son
- 34.Sug'urtalovchilarga nisbatan jarima sanksiyalarini qo'llash tartibi to'g'risidagi nizom. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2024 y., 10/24/3512/0343-son
- 35.Saburov N., Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / O'quv qo'llanma.-Toshkent: TDYUI, 2011, - B.147-148 (170)
- 36.Finansovoye pravo Respubliki Uzbekistan. Kollektiv avtorov. Uchebnik. Tashkent. «Niso Poligraf», 2022, - B.133-134 (552)
- 37.Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi. Darslik. Toshkent, TDYUI, 2002. -B.-94-96 (407)
- 38.Arslanbekova A.Z. Ponyatiye finansovo-pravovoy otvetstvennosti. Statya. Vestnik Dagestanskogo gosudarstvennogo universiteta. 2013. Vip. 2 -S.71-73
- 39.Boyko N.N., Vorobeva Ye.A., Muxyanova A.A. Finansovaya otvetstvennost kak vid yuridicheskoy otvetstvennosti // Ekonomika i sotsium. 2016. №12-1 (31). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/finansovaya-otvetstvennost-kak-vid-yuridicheskoy-otvetstvennosti-1> (data obrasheniya: 24.08.2024).
- 40.Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi. Darslik. Toshkent, TDYUI, 2002. -B.-94-96 (407)
- 41.Muskatina A.A. Finansovaya otvetstvennost v sisteme yuridicheskoy otvetstvennosti. Avtoreferat diss.. kandidata yuridicheskix nauk. Kazan, 2004.-S.10 (20)

42.Serdyukova N.V. Finansovo-pravovaya otvetstvennost po Rossiyskomu zakonodatelstvu: stanovleniye i razvitiye. Avtoreferat diss...kandidata yuridicheskix nauk. Tyumen.2003.-S.14 (26)

43.Arslanbekova A.Z. Finansovo-pravovye sanksii v sisteme mer yuridicheskoy otvetstvennosti: monografiya. – M.: IVTS «Marketing», 2008.-S. 104 (396)

44.Kroxina Yu. A. Finansovoye pravo Rossii: uchebnik / Yu. A. Kroxina. — 3-ye izd., pererab. i dop. — M. : Norma, 2008. -S.181-183 (720 s.)

45.Boyko N.N., Vorobeva Ye.A., Muxyanova A.A. Finansovaya otvetstvennost kak vid yuridicheskoy otvetstvennosti // Ekonomika i sotsium. 2016. №12-1 (31). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/finansovaya-otvetstvennost-kak-vid-yuridicheskoy-otvetstvennosti-1> (data obrasheniya: 24.08.2024).

46.Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi. Darslik. Toshkent, TDYUI, 2002. -B.-94-96 (407)

47.Rahimova A., Hojiyev E. O'zbekiston Respublikasi Moliya huquqi. Darslik. Toshkent, TDYUI, 2002. -B.-100-102 (407)

48.Finansovoye pravo Respubliki Uzbekistan. Kollektiv avtorov. Uchebnik. Tashkent. «Niso Poligraf», 2022,- B.139 (552)